

BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA DIFFERENSIAL MIKROTEACHING MODELINING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

Maxliyoxon Yuldasheva Ahmadjon qizi

Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti

Ingliz tili o'qitish metodikasi kafedrası

stajyor-o'qituvchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21672345>

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy-metodik kompetensiyalarini rivojlantirishda an'anaviy mikroteaching jarayonini bosqichma-bosqich qismlarga bo'lib o'qitish (differential microteaching) yondashuvining nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Shuningdek, talabalarining dars o'tish jarayonidagi psixologik xavotirni kamaytirish va pedagogik ko'nikmalarni chuqurlashtirish mexanizmlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Differensial mikroteaching, metodik kompetensiya, ingliz tili o'qituvchisi, kasbiy tayyorgarlik, mikromodellashtirish.

Abstract: This article highlights the theoretical and practical foundations of the differential microteaching approach in developing the professional and methodological competencies of pre-service English language teachers by breaking down traditional microteaching into targeted stages. Furthermore, mechanisms for reducing psychological anxiety during lesson delivery and deepening pedagogical skills are analyzed. **Keywords:** Differential microteaching, methodological competence, English language teacher, professional training, micro-modelling.

Kirish

Oliy pedagogik ta'lim tizimini modernizatsiya qilish hamda kredit-modul tizimi talablarini amaliyotga joriy etish jarayonida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini amaliy yo'naltirish eng ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ingliz tili filologiyasi yo'nalishi talabalari fundamental nazariy bilimlarni (metodika, tilshunoslik, pedagogika) yuqori darajada o'zlashtirsalar-da, ularni real akademik auditoriyada yoki umumiy o'rta ta'lim maktablarida tatbiq etishda qator psixologik, lingvistik va metodik to'siqlarga duch keladilar.

An'anaviy mikroteaching (microteaching) jarayoni talabaga birdaniga yaxlit va to'liq dars o'tish (45 daqiqalik modelning qisqartirilgan shakli) vazifasini yuklagani bois, u ko'pincha talabalarda ortiqcha emotsional stressni keltirib chiqaradi va dars elementlarining yuzaki tahlil qilinishiga sabab bo'ladi. Nomzod o'qituvchi bir vaqtning o'zida ham sinf intizomini saqlash, ham lingvistik materialni tushuntirish, ham vaqtning nazorat qilishga urunib, barcha komponentlarda xatoliklarga yo'l qo'yadi. Mazkur muammoni tizimli bartaraf etish hamda bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik "men"ligini shakllantirish uchun dars jarayonini tarkibiy qismlarga bo'lib o'qitish — **differensial mikroteaching (differential microteaching)** modeliga murojaat qilish dolzarb ilmiy-pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Tahlil va metodologiya

Mikroteaching texnologiyasi dastlab 1960-yillarda Stenford universitetida D. Allen va K. Rayan tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, o'qituvchilikka nomzodlarning qisqa muddatli mashg'ulotlar davomida o'z ko'nikmalarini kichik talabalar guruhi bilan sinab ko'rishiga asoslanadi. Ushbu klassik yondashuv o'z davrida inqilobiy bo'lgan bo'lsa-da, zamonaviy xalqaro ELT (English Language Teaching) metodikasida va kompetensiyaviy yondashuv sharoitida uning yanada takomillashtirilgan va maqsadli shakli — **differensial mikromodellashtirish** ustuvorlik qilmoqda.

Differensial mikroteachingning tub mohiyati shundan iboratki, talaba amaliyot darsining ilk bosqichlaridayoq murakkab ko'p funksiyali dars girdobiga tashlanmaydi. Buning o'rniga, o'quv semestri davomida har bir amaliy mashg'ulot faqat bitta dominant kasbiy kompetensiyani (targeted skill) shakllantirish va chiniqtirishga yo'naltiriladi. Bizning tadqiqot modelimiz doirasida ushbu jarayon quyidagi 3 ta asosiy differensial blokka ajratildi:

1. **Vaqt menejmenti bloki (Time Management Focus):** Ushbu sessiyada talaba atigi 7-10 daqiqalik dars parchalarini (masalan, *Warm-up* yoki *Lead-in*) rejalashtiradi va o'tib beradi. Baholash mezonini faqatgina rejalashtirilgan vaqt segmentlariga qanchalik aniq amal qilinganligi va dars dinamikasini to'g'ri taqsimlay olish ko'nikmasiga qaratiladi.
2. **Sinf nazorati va ko'rsatmalar bloki (Classroom Management and Instructions Focus):** Mazkur bosqichda talaba darsda guruhlar yoki juftliklar bilan ishlash (Pair/Group work) jarayonini tashkil etishni namoyish qiladi. Asosiy e'tibor o'qituvchining ko'rsatma berish sifati (Instruction Giving) va talabalarining tushunganligini tekshiruvchi savollar (ICQs - Instruction Checking Questions) tizimidan unumli foydalanishiga qaratiladi.
3. **Xatolarni tuzatish va aks aloqa bloki (Error Correction and Feedback Focus):** Bu bosqichda talabalar muloqot mashqlaridan keyingi tahlil (Delayed Feedback) jarayonini simulyatsiya qiladilar. Nutqiy faoliyat davomida yo'l qo'yilgan xatolarni o'qituvchining motivatsiyasini tushirmagan holda, anonim va konstruktiv tahlil qilish mahorati o'lchanadi.

Pedagogik nuqtai nazardan, bunday yondashuv talabalarining pedagogik xavotirini (teaching anxiety) sezilarli darajada kamaytiradi. Kognitiv yuklama (cognitive load) kamayishi hisobiga talaba o'z e'tiborini bir vaqtning o'zida bir nechta murakkab pedagogik muammoga emas, balki aynan o'sha kun uchun belgilangan aniq bir metodik vazifaning sifatli ijrosiga qaratadi.

Xulosa va amaliy tavsiyalar

Olib borilgan tadqiqot va amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, ingliz tili filologiyasi talabalarini metodik tayyorlash jarayonida differensial mikroteaching modelidan foydalanish ularning kasbiy tafakkurini tizimlashtiradi. Dars jarayonini bosqichli va maqsadli qismlarga bo'lish talabalarining o'z professional salohiyatiga bo'lgan ishonchini oshiradi.

Ushbu modelni oliy ta'lim tizimiga kengroq tatbiq etish uchun quyidagi amaliy tavsiyalar ilgari suriladi:

- Metodika darslarining amaliy qismida umumiy baholash shablonlaridan voz kechib, har bir differensial dars uchun alohida dinamik mezonlar (dynamic rubrics) tizimini joriy etish; Talabalarining mikromodellashtirish jarayonlarini doimiy ravishda raqamli vositalar yordamida videoga muhrlab borish va ularni keyingi kognitiv tahlil uchun asosiy material sifatida qo'llash.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Allen, D. W., & Ryan, K. A. (1969). *Microteaching*. Addison-Wesley.
2. Turney, C., et al. (1983). *Microteaching: Research, Theory and Practice*. Sydney University Press.
3. Richards, J. C., & Farrell, T. S. (2005). *Professional Development for Language Teachers*. Cambridge University Press.
4. G'afforov Y. X. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022.